

**BADIIY ASARDA TARIXIY OBRAZ YARATISH TAMOYILLARI  
(FERUZ OBRAZI MISOLIDA)**

**Jumaniyazova Ro‘zagul Saparbayevna**

O‘chmas tariximiz ravnaqida muhim o‘rin kasb etgan shaxslar talqinida davr haqiqati va ezgulik g‘oyalarining namoyon bo‘lishi, avvalo, ijtimoiy muhit bilan bog‘liqdir. Zero, badiiy asarlarda Beruniy va Ibn Sino talqini X–XI asrlar, Navoiy va Bobur talqini esa XV–XVI asrlardagi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog‘lanishi mahorat bilan tasvirlangan. Shu o‘rinda Muhammad Rahimxon Feruz yashagan davr ham aynan XIX asr o‘rtalari va XX asr boshlarida bo‘lganligi bois, aynan ushbu davrlar ijtimoiy muhiti bilan tarixiy-badiiy asarlardagi Feruz obrazi talqini chambarchas bog‘liqdir. Mashhur adabiyotshunos olim M.Qo‘shjonov ta’kidlaganidek, tarixiy shaxs yashagan, ishlagan muhitiga ko‘proq e’tibor berish, bizning nazarimizda, yirik siymolar obrazini yaratishning muhim tomonidir.<sup>99</sup>

Ijodkor shaxs talqiniga adabiy–tarixiy yondashuvda muallifning nuqtai nazari, adabiy qahramon xarakteri va bu xarakterga ijtimoiy muhit va an‘analari ta’siri kabi omillarning alohida o‘rni bor. Bulardan muallif pozitsiyasida shaxs va voqelik munosabatini yoritishdagi dunyoqarashi nazarda tutilsa, qahramon xarakterida shaxsning faoliyat ko‘lami, milliy va umuminsoniy mohiyati namoyon bo‘ladi, muhit va an‘analarning o‘rni esa xarakterda tarixiylik va zamonaviylikning bog‘liqligi, badiiy tasvir va ifodalilikda muallif uslubining o‘ziga xosligi namoyon bo‘ladi. Bu tamoyillar tarixiy ijodkor shaxs talqini uchun, asosan, tipologik bo‘lgan quyidagi jihatlarga diqqat qaratishni taqozo etadi:

1. Tarixiy shaxs talqini asosini tashkil etuvchi tarixiylik tamoyili ijodkor shaxs talqiniga ham xos bo‘lib, unda ijodkor shaxsiyati, davr va inson muammosi markaziy masaladir.

2. Ijodkor shaxsning adabiy–tarixiy talqini muallifning maqsad va iqtidoriga ko‘ra turli janrlarda va tarixiy ilg‘amlarda yaratilsa ham ularni baholashda hayot haqiqati va xolislik yagona mezondir.

3. Odatda, ijodkor shaxslarni ko‘pqirrali faoliyat xarakterlaydi. Ular shoir, alloma, arbob sifatidagi fazilatlarni o‘zlarida mujassamlashtira olgan yaxlitlikka ega barkamol shaxs timsoli bo‘lib, adabiy talqinda butun murakkabligi bilan tadqiq etilishi tasvirga tabiiylik va reallik bag‘ishlaydi.

4. Adabiy-tarixiy talqinda ijodkor individualligini belgilovchi omillardan biri - uslub har bir asarda o‘ziga xos bo‘lgani holda mohiyat jihatdan asar pafosi – inson va ezgulikni ulug‘lash g‘oyasini ifodalashga xizmat qiladi.<sup>100</sup>

<sup>99</sup> Qo‘shchanov M. Ma’no va mezon. – Toshkent: Adabiyot va san’at, 1974. – B. 23.

<sup>100</sup> Rahimova B. O‘zbek adabiyotida Pahlavon Mahmud obrazi talqinlari. Monografiya. Urganch. 2012. B – 8.

Ushbu yetakchi tamoyillar badiiy ijodda tarixiy ijodkor shaxs konsepsiyasi talqinidagi o'zbek adabiyotida yaratilgan ko'plab asarlarda o'z ifodasini topgan. Sharqning mashhur tarixiy siymolaridan biri Muhammad Rahimxon Feruz (1845-1910) haqidagi asarlarda ham uning badiiy obrazi talqinida shu tamoyillar mavjud. Ma'lumki, Feruz o'zining san'at homiyligi bilan, teran aql-zakovati, shoirlik salohiyati va adolatli shohligi bilan keng shuhrat topgan va o'z davrining she'riyat va san'at homiysiga aylangan. Uning g'azallari, turli janrlardan tashkil topgan ijodiy merosi ma'naviy qadriyat sifatida insonlarni ezgulik va komillikka chorlab kelmoqda, amaliy faoliyati ham avlodlar uchun ibrat namunasiga aylangan.

Muhammad Rahimxon Feruz shaxsidagi bu fazilatlar xalq xotirasida asrlar osha saqlanib kelmoqda. Shu sababli og'zaki va yozma manbalarda shoirning hayoti va faoliyatiga oid qator ma'lumotlar mavjud va ular Feruz badiiy siymosi uchun asos bo'ldi.

Feruz badiiy obrazi talqinida istiqlolning dastlabki yillari va XXI asr davri yangi bosqich bo'ldi va qator o'ziga xos xususiyatlar kasb etdi. Birinchidan, Feruz haqidagi tarixiy haqiqat tiklandi, bu davrda Feruz obrazining mukammallashtirilgan badiiy qiyofasi yaratila boshlandi. Zero, shu paytga qadar ya'ni mustaqillikdan oldin yaratilgan Feruz obrazi namoyon bo'lgan badiiy, tarixiy asarlarda uning obrazi bir yoqlama talqin qilingan. Jumaniyoz Sharipovning "Xorazm" va Erkin Zohidovning "Xorazm fojiasi" romanlarini kuzatar ekanmiz, Feruz obrazi talqinida salbiy bo'yoqlar ko'pligi namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, istiqlol davrida yuzaga kelgan asarlarda Feruz obrazi talqinida xolislik, chinakam tarixiylik va badiiylik tamoyillari asosidagi yondashuv ustunlik qiladi (Erkin Samandarning "Quyun izlari yoxud Ogahiy" asari, Feruz obraziga murojaat qilingan she'rlar). Muhimi shundaki, bu asarlarda shoirning tom ma'nodagi real adabiy obrazi yaratildi va u teran g'azalnavis shoir va yetuk davlat arbobi sifatidagi tadrijiy takomilda kashf etilgan xarakter darajasiga ko'tarildi. Darhaqiqat, «adabiy xarakter real hayotiy inson xarakterining ko'chirmasi, kopiyasi emas, badiiy adabiyotdagi xarakter nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u ham real hayotiy, ham ijodkor fantaziyasidagi, idealidagi tasavvurlarni mujassamlashtirgan bo'ladi, ijodkor xarakter vositasida voqelikka munosabat bildira oladi»<sup>101</sup>

Xarakter yaratish tarixiy shaxs talqinidagi muhim jihatlardan biridir. Chunki badiiy xarakter konkret voqelikda shakllanadi, takomillashadi va ular o'rtasidagi aloqadorlik shaxs va borliqni ijtimoiy jarayondagi obyektiv hodisalar sifatida gavdalantiradi. Shu jihatdan Feruz xarakterining mohiyati, avvalo, uning o'z ijtimoiy muhitiga, yashagan davri voqeligidagi dolzarb masalalarga teran munosabatida namoyon bo'ladi. Bular jaholatni qoralash, mardlik, ma'naviy zulmga inson erkini, razillik va tubanlikka axloqiy poklik va barkamollikni qarshi qo'yish, musiqa va san'atning turli xillariga oshufta bo'lish va boshqalar.

<sup>101</sup> Xotamov N. Sarimsoqov B. Adabiyotshunoslik terminlarining ruscha-o'zbekcha izohli lug'ati. - Toshkent: O'qituvchi, 1979. – B. 336.

Umuman olganda, tarixiy shaxslarga bag'ishlangan asarlardagi talqin ikki yo'nalishga ega. Birinchisida tarixiy shaxsning tarjimai holi talqini aynan aks ettirilib, tarixiy voqealar fon vazifasini bajaradi. Ikkinchisida esa tarixiy shaxs hayotidagi muayyan voqealar yoki ularning bir qismi talqini orqali muhim ijtimoiy–axloqiy muammolar ko'tariladi. Tarixiy fakt va dalillarning mavjudligi yozuvchi uchun zarur material bo'lib xizmat etsa ham ularga ijodiy yondashish, badiiy to'qima, mubolag'a va boshqa badiiy usul hamda vositalardan foydalanish talab etiladi. Shu sababli adabiy talqinda obrazni shakllantiruvchi uch omil – prototip (hayotiy material), badiiy to'qima (ijodkor fantaziyasi) hamda asosiy g'oya (estetik ideal) sintezi yuzaga keladi. Binobarin, «yozuvchi badiiy to'qima yordamida konkret odamlardagi mavjud ijobiy yoki salbiy hislatlarni va ro'yobga chiqmagan imkoniyatlarni real qilib tasvirlaydi, hayotiy fakti o'z ijodiy maqsadiga muvofiq rivojlantirib, o'zgartirib ko'rsatadi va badiiy to'qima hayotdan olingan haqiqiy taassurotlarga asoslaniladi»<sup>102</sup>. Bu xususiyatlar Feruz obrazi talqin qilingan asarlarda ularning janriy xususiyatlari va ijodkor salohiyatiga bog'liq holda aks etgan.

Xulosa qilib aytganda, badiiy asarlarda tarixiy obraz yaratish tamoyillari nihoyatda rang-baranglik kasb etgani holda, tarixiy shaxsning badiiy obrazi asosiy zamini va manbai u yashagan tarixiy voqelik, hayot faoliyati bilan bog'liqligi aniqlandi. Bular tarixiy davr va shaxs tamoyili asosida Feruz siymosining shakllanishidagi ijtimoiy muhit, turmush tarzi va boshqa ma'naviy-psixologik omillarni aniqlashga imkon berdi.

---

<sup>102</sup> Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: O'qituvchi, 2001. –B. 49.